



НАУЧНЫЙ
ИМПУЛЬС

ЦЕНТР НАУЧНОЙ
ПОДДЕРЖКИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ СОВРЕМЕННЫЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

НОВОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ: ИССЛЕДОВАНИЕ В XXI ВЕКЕ



Последние
взгляды

Последние
данные

Последние
исследование

И НОВОЕ ОБРАЗОВАНИЕ



Международный современный научно-практический журнал

Новости образования: Исследование в XXI веке

№ 26 (100)
Октября 2024 г.

Часть 1

Издается с августа 2022 года

Москва 2024

Председатель редколлегии: Гуляева Елена Камал - Представитель технической поддержки

Редакционная коллегия:

Макаровский Руслан Сергеевич- Заведующий кафедрой организационного управления Института прикладного анализа поведения и психолого-социальных технологий, практикующий психолог, специалист в сфере управления образованием.

Арестова Инесса Юрьевна – канд. биол. наук, доц. кафедры биоэкологии и химии факультета естественнонаучного образования ФГБОУ ВО «Чувашский государственный педагогический университет им. И.Я. Яковлева», Россия, г. Чебоксары;

Ахмеднабиев Расул Магомедович – канд. техн. наук, доц. кафедры строительных материалов Полтавского инженерно-строительного института, Украина, г. Полтава;

Бахарева Ольга Александровна – канд. юрид. наук, доц. кафедры гражданского процесса ФГБОУ ВО «Саратовская государственная юридическая академия», Россия, г. Саратов;

Бектанова Айгуль Карибаевна – канд. полит. наук, доц. кафедры философии Кыргызско-Российского Славянского университета им. Б.Н. Ельцина, Кыргызская Республика, г. Бишкек ;

Волков Владимир Петрович – канд. мед. наук, рецензент АНС «СиБАК»;

Елисеев Дмитрий Викторович – канд. техн. наук, доцент, начальник методологического отдела ООО "Лаборатория институционального проектного инжиниринга";

Комарова Оксана Викторовна – канд. экон. наук, доц. доц. кафедры политической экономики ФГБОУ ВО "Уральский государственный экономический университет", Россия, г. Екатеринбург;

Лебедева Надежда Анатольевна – д-р филос. наук, проф. Международной кадровой академии, чл. Евразийской Академии Телевидения и Радио, Украина, г. Киев;

Маршалов Олег Викторович – канд. техн. наук, начальник учебного отдела филиала ФГАОУ ВО "Южно-Уральский государственный университет" (НИУ), Россия, г. Златоуст;

Орехова Татьяна Федоровна – д-р пед. наук, проф. ВАК, зав. Кафедрой педагогики ФГБОУ ВО «Магнитогорский государственный технический университет им. Г.И. Носова», Россия, г. Магнитогорск; Самойленко Ирина Сергеевна – канд. экон. наук, доц. кафедры рекламы, связей с общественностью и дизайна Российского Экономического Университета им. Г.В. Плеханова, Россия, г. Москва ;

Сафонов Максим Анатольевич – д-р биол. наук, доц., зав. кафедрой общей биологии, экологии и методики обучения биологии ФГБОУ ВО "Оренбургский государственный педагогический университет", Россия, г. Оренбург;

Милютин Николай Даминович – Доктор юридических наук;

Сергеев Анатолин Викторович – Кандидат биологических наук.

Новости образования: исследование в XXI веке: научный журнал. – № 26 (100).

Часть 1. М., Изд. «МЦНО», 2024.

Журнал «Новости образования: исследование в XXI веке» освещает сферу духовно-просветительского мышления человека, общественно-политическую жизнь человека, институты гражданского общества, глобальные проблемы, проблемы образования, новые технологии, производимые сегодня, реформирование системы образования и публикуются научные статьи, посвященные открытому научно-популярному анализу.

СОДЕРЖАНИЕ:

Название научной статьи, ФИО авторов	Номер страниц
YOSHLAR HUQUQLARI VA YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI VA UNING MAZMUN MOHIYATI Fozilov G`ofurjon Dilmurodjon o`g`li	8
ARNASOY DAVLAT ORNITOLOGIK BUYURTMA QO'RIQXONASINING EKOTURISTIK SALOHİYATI Safarov K.S Usmanov M.R Gadaev Q.S	14
KEKSA YOSHLILAR UCHUN JAHON MUZEYLARIDAGI LOYIHALARNI YURTIMIZDAGI MUZEYLARGA TADBIQ ETISH USULLARI Maftuna Urakboyeva	17
ENERGIYA TIZIMINING TURG'UNLIGINI BUZILISH SABABLARI TAHLILI Xamrayev Og`abek Qadamboyev O`lmasbek Duvshatova Dinora	20
INVESTIGATING THE THOUGHT PROCESSES AND CREATIVITY OF FUTURE EDUCATORS IN THE CONTEXT OF GLOBAL TRENDS, ALONG WITH THEIR PREPARATION FOR DESIGNING INNOVATIVE LESSONS Shodiyev Faxriddin	24
THE EFFECTIVENESS OF THE APPLICATION OF COMPUTER TECHNOLOGY IN LESSONS Faxriddinov Muhammad Faxriddin o`g`li	32
TASVIRIY SAN'AT O'QITISH METODIKASI DARSLARIDA KOMPOZITSION QONUNIYATLARNI GEOMETRIK SHAKILLAR ASOSIDA O'QITISH USULLARI Kadirov Jamshid Xolmuhamad o`g`li	36
"ODAM BO'LISH QIYIN" ROMANIDA PERSONAJLAR XARAКTERI Normatov Rixsimurod Qo'chqor o`g`li	40
USTRUSHONA TARIXIDA JIZZAX VOHASINING TUTGAN O'RNI I.Imonkulova	43
JIZZAX VA NUROTA VOHALARIDAGI AYRIM SUG'ORISH INSHOOTLARINING TARIXI XUSUSIDA I.Imonkulova	46
NEFT YO'LDOSH GAZLARINI KATALITIK PIROLIZLAB NANOUGLEROD OLISH REAKSIYASI TEZLIGIGA TURLI OMILLARNING TA'SIRI Turayev B	49

Kungiratorov K Abduraximova M Fayzullaev Normurot Ibodullayevich	
МОРФОФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ СТРУКТУР МОЛОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ В ПЕРИОД БЕРЕМЕННОСТИ И ЛАКТАЦИИ НА ФОНЕ ЭКОТОКСИЧЕСКОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ Ураков Гайрат Мардикулович	59
ЛАБОРАТОРИЯ ҲАЙВОНЛАРИНИНГ СУТ БЕЗИДАГИ ФУНКЦИОНАЛ ЎЗГАРИШЛАРДА ПИРЕТРОИДЛАРНИНГ ЎРНИ Ураков Гайрат Мардикулович	64
ТАЪЛИМ ТИЗИМИ СИФАТИНИ ОШИРИШДА ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТ Рахматова Мухтасар	68
MHXS BO'YICHA BIRINCHI HISOBOT TAYYORLASH MUAMMOLARI Valiyev Hayotbek	78
BIRDS OF UZBEKISTAN: AN OVERVIEW OF AVIAN FLORA Seytova Nargiza Jursunbekovna Muratbaeva Biybimaryam Jalg'asbay qizi Kuanishbaeva Gʻulbazar Baxtiyarovna Mirzamuratova Shamurat Salamat uli	88
INNOVATSION TA'LIM SHAROITIDA "HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI" FANINI O'QITISHNING MAZMUNI VA PRINSIPLARI Maxmudov Sodir Yusufaliyevich	91
BIOMINERAL SHAKLLANISH TABIIY MINERAL HOSIL BO'LISH JARAYONLARINING MAXSUS KLASSI SIFATIDA Sotvoldiyeva Sevarxon Anvarovna	103
"INNOVATIVE APPROACHES TO DEVELOPING THE TOY INDUSTRY: TRENDS, CHALLENGES, AND OPPORTUNITIES" Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi	106
"TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA YARATILAYOTGAN SHAROITLAR" Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi	116
KORONALARDA QO'LLANILADIGAN SUV TURLARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI Kuchkarova Noila Xusnitdinovna Shamsuddinov Latifxon Odil o'g'li Ababakirova Marjona Ikrom qizi Darxonova Sevinch Abduvoxid qizi	122
«МЕЖДУНАРОДНЫЙ МЕХАНИЗМ РЕГУЛИРОВАНИЯ СМАРТ- КОНТРАКТОВ В СФЕРЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ». Ҳакимова Муштарий Жахонгир қизи	129

GLOBAL INVESTITSIYA TENDENSIYALARI VA O'ZBEKISTONNING O'RNI: Xujayev Xurshid Xamrayevich Azizova Munira Ziyodulla qizi	137
GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLAR BARQAROR TARAQQIYOTGA TAHDIDI VA UNING SOLMOG'I Yuldoshev Shaxboz xoshimjon o'g'li Isaboyeva Dilnoza Saxodaliyevna	140
PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING TILSHUNOSLIKDA TUTGAN O'RNI, MAQSADI, VAZIFALARI Umarova Minavvarxon Muqumjon Axunov Muhammadaminovich	149
FIRMA NOMLARI TO'G'RISIDAGI QONUNCHILIKNI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK MASALALARI XALQARO SHARTNOMALARDA VA XORIJ TAJRIBASIDA Allayarova Maftuna Almardonovna	153
TIJORAT BANKLARINI RAQAMLILASHTIRISH TAMOIYILLARI VA XIZMAT SIFATIGA TA'SIRI Zakirov Ixtiyor Sanrovich Muzaffarov Jo'rabek Mustaqim o'g'li	157
IQTISODIY RIVOJLANISHNI MUHITI VA INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIKNI YAXSHILASH MASALALARI Tursunov Sulaymon Shodiyor o'g'li	162
THE SPANISH LANGUAGE AS A DIPLOMATIC INSTRUMENT IN 2024 Atoullayev Dilkhushbek Makhmudovich, Mukhamedova Mukaddaskhon Rustamovna	170
TOHIR MALIKNING "ODAMIYLIK MULKI" ASARINING YOSHLAR HAYOTIDAGI TARBIYAVIY AHAMIYATI Xamrayeva Sitara Xalil qizi	173
XORAZM VOHASI HUNARMANDCHILIGINING KELIB CHIQISH TARIXI VA BUGUNGI HOLATI Matyoqubov Xolbek Shonazarovich	175
THE IMPORTANCE OF ENGLISH IN TOURISM Ismoilova Sabina	179
THE IMPORTANCE OF SELF-STUDYING IN LEARNING ENGLISH Sabina Ismoilova	181
EVALUATING THE ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF WEB-BASED APPLICATIONS IN PRESCHOOL EDUCATION Kamolova Muxlisa Rustamovna	184
THE HISTORY OF ENGLISH LINGUISTICS Sultonova Gulrukh Islomjonovna	187

ИЗ ИСТОРИИ УЧАСТИЯ ХОРЕЗМСКИХ МИЛИЦИОНЕРОВ ВО ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЕ Хамдамова Юлдуз Равшанбек кизи	190
BOLALARNI ESTETIK JIHATDAN TARBIYALASHDA MUSIQANING RO'LI Saidqulova Gavhar Odiljon qizi	194
ҚАДИМИЙ Х-ХІ АСРЛАР ВА УНДАН КЕЙИНГИ ДАВРЛАРДА ҚЎҲНА ХОРАЗМДА ҲУНАРМАНДЧИЛИК ВА АМАЛИЙ САНЪАТ ТУРЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИГА ОИД МАЪЛУМОТЛАР Матякубов Холбек Шоназарович	197

BOLALARNI ESTETIK JIXATDAN TARBIYALASHDA MUSIQANING RO'LI

Saidqulova Gavhar Odiljon qizi

Chirchiq davlat pedagogika univetsiteti Maktabgacha ta'lim fakulteti.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bolalarni estetik jihatdan tarbiyalash jarayonida musiqaning ro'li va ahamiyati haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Musiq, estetika, san'at, madaniyat, rivojlanish, bolalar, tarbiyalash, munosabat.*

Bugungi kunda Respublika xukumatining qator xujjatlari vatanimizning har tamomlami jahon andozalari talablari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyat, urf-odatlar, an'analari, milliy qadiryatlar va ota bobolarimiz tomonidan yaratilgan, butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. "Yangi O'zbekiston-maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi" degan g'oya asosida keng ko'lamli islohatlar amalga oshirililmoqda. 1 Musiqa va san'at maktablari o'quvchilarini axloqiy-estetik madaniyatni shakllantirishda musiqa nihoyatda katta ahamiyat ko'rsatuvchi san'at turlaridan biridir. Musiqaning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, u bolalar his-tuyg'ulari va ruhiy holatlarining eng nozik qirralarini, ulardagi farqlarni o'zida ifoda qiladi va shu orqali bolaning ichki olamiga chuqur ta'sir ko'rsatadi.

Estetik tarbiya keng ma'noli tushuncha bo'lib, unga tabiat, mehnat, ijtimoiy hayot, turmush va san'atga estetik munosabatni tarbiyalash kiradi. Estetik tarbiya o'z navbatida bolalarga har tomonlama tarbiya berishning bir qismi hisoblanadi. U, ayniqsa, axloqiy tarbiya bilan uzviy bog'liq. San'at va hayot go'zalligi bilan tanishtirib borish bolaning aqlini, hissini tarbiyalab qolmay, shu bilan bir qatorda uning xayol va fantaziyasini ham rivojlantiradi. Bolalarda go'zallikni idrok etishni tarbiyalash orqali ularda boshqa kishilarning kechinmalarini his eta bilish: xursandchiliklariga sherik bo'lish, qayg'usini birga baham ko'rish kabi xususiyatlar tarkib toptiriladi.

Bolalarning estetik rivojlanishi ularning kundalik hayoti bilan chambarchas bog'liq. Ilk yoshdagi bolalarni nazarda tutganda ham ularning estetik tarbiyasi to'g'risida emas, balki ularning hissiy va sensor rivojlanishi to'g'risida o'ylash kerak. Bola yaltiroq bo'yoqdan xursand bo'ladi, bir maromdagi tovush va harakatlardan huzur qiladi. Bola hayotining birinchi yilida uning sensor-hissiy qabul qiluvchanligi takomillashib boradi. Bunda kattalarning ta'siri alohida o'rinni egallaydi. Kattalarning ochiq yuz bilan so'zlashuvlari bolaga buyumlarning xususiyatlariga ijobiy munosabatda bo'lishlariga yordam beradi. Va aksincha, kattalarning ogohlantiruvchi ovozi, ularning yuzidagi xursandchilik alomati yoki xo'mrayib qarashlari, jerkib berishlari va hokazolar bolalarda shu buyumga yoki uning sifatiga salbiy munosabatni shakllantiradi.

Musiqa shunday san'at turiki, u bolalarni kechinmalari, emotsional hissiyotlari orqali birlashtiradi. Ular orasidagi aloqa vositasiga aylanadi. Bir kompozitor tomonidan yaratilgan musiqa boshqa insonlar qalbida turli-tuman kechinmalar o'yg'otishining o'zini bir mo'jiza deb, atash mumkin. Musiqa tarbiyasi estetik tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Inson shaxsini shakllantiruvchi yetakchi omillardan biri - ta'lim-tarbiyadir. Estetik tarbiya esa uning tarkibiy

qismi sifatida go‘zallikning mohiyati, estetik va axloqiy hissiyotlarning birligi, san’atning xalqchilligi to‘g‘risidagi ta’limotga suyanib, bolalarning ob’ektiv dunyo haqidagi bilimni kengaytiradi va chuqurlashtiradi, ijodiy qobiliyatini va iste’dodini o‘stiradi hamda ularda yuksak ma’naviy fazilatlarning tarkib topishiga yordam beradi. Odatda, estetik tarbiyaning maqsadi bolalarda estetik his-tuyg‘u va fikrlarni rivojlantirish, go‘zallikni ko‘ra, bilish va ulardan zavqlana olishdan iborat, deb tushuniladi. Aslida bolalarning estetik tarbiyasini maqsad va vazifalari bu - bilan chegaralanib qolmaydi, o‘quvchilarni go‘zallik va xunuklikni, yuksaklik va tubanlikni, shodlik, kulfatni anglash va ko‘ra bilishga o‘rgatadi.

Musika tili barchaga tushunarli va yaqindir. Musika tovush tovlanishlari orqali fikr va tuyg‘ularni aks ettiradi, hayot bosqichlarida insoniyatni to‘lqinlantirib kelgan axloqiy muammolarni bayon qiladi. Bunda musiqaning falsafiy mohiyati ham namoyon bo‘ladi. Ajoyib musika asarlari chuqur falsafiy mazmun bilan sug‘orilgan bo‘ladi, musiqada hayot va o‘lim, shaxs va jamiyat, ezgulik va zulm, qudrat va zaiflik kabi masalalar aks etadi. Musiqaning inson ruhiyatiga ta’sir qilishining tugallanmas imkoniyatlari haqida qadimdan musiqashunoslar, mutafakkirlar va olimlar diqqatini o‘ziga tortgan. Faylasuflar, psixologlar, pedagoglar va jamoat arboblari san’atlar ichida. musika san’atining insonni Shaxs sifatida shakllanishiga ta’sir qiladigan xususiyatlari haqida aniqlashga uringanlar.

Bolalarning umumiy musiqiyligiga nimalar asos bo‘ladi: musika bolaning estetik tarbiya omili sifatida unga go‘zallikni qabul qilish tushunish qobiliyatlarini rivojlantirish.

Bu masalalarni hal etish uchun umumiy musiqiylilikni rivojlantirish zarurdir. Musiqiy omillar 3 tamoyilga bo‘linadi:

1. Musiqaning xarakteri, kayfiyatini his etish, musiqaga emotsional munosabat bildirish (musiqaning ifodaviyligi va tasviriyligi). Bolada musiqani tinglaganda uning xarakteriga mos kayfiyatda bo‘lishga erishish kerak.

2. Eng yorqin musiqiy obrazli asarni qo‘shiq, taqqoslash va baho berish. Bunda musika ifoda vositalari, musiqiy asboblarning temblari, eshitish madaniyati talab etiladi. Masalan, cholg‘u asboblarning yuqori va past temblari (skripka – alt, kontrabas – violonchel va boshqa cholg‘u asboblari)

3. Musiqaga ijodkorlik munosabatini bildirish. Har bir bola biror musiqiy asarni eshitib o‘zicha badiiy tasavvur qiladi va qo‘shiqda, o‘yinlarda, raqs elementlari bilan hissiy munosabat bildirishi mumkin. Bu bolalarda ijrochilikning ilk namoyishlari bo‘lishi mumkin.

a) Musika – bolalarning aqliy faoliyatining faollashtiruvchi omildir.

b) Musika – ahloqiy omil bo‘lib, ma’naviyatning ajralmas qismini tarkib toptiradi. Musiqadan an’analarga hurmat, vatanni sevish va boshqa tarbiyaviy axloqiy fazilatlarni tarbiyalaydi.

v) Musika – jismoniy tarbiya omili hamdir.

Musika bolalarning his – tuyg‘ulariga bevosita ta’sir qilishi orqali ularning ma’naviy qiyofasini shakllantiradi.

Musika san’atining ta’sir kuchi boshqa – ta’kid va uqtirishlarga nisbatan kuchliroq bo‘ladi.

Bolalarni har xil emoqional – obrazli mazmundagi asarlar bilan tanishtirar ekanmiz, biz beixtiyor ularni hissiyotlariga ta’sir qilamiz va ularni kechinmalar olamiga olib kiramiz.

Bolalar musika adabiyotida bolalarning musika tovush tovlanishlari orqali fikr va tuyg‘ularni aks ettiradi, hayot bosqichlarida insoniyatni to‘lqinlantirib kelgan axloqiy

muammolarni bayon qiladi. Bunda musiqaning falsafiy mohiyati ham namoyon bo'ladi. Ajoyib musiqa asarlari chuqur falsafiy mazmun bilan sug'orilgan bo'ladi, musiqada hayot va o'lim, shaxs va jamiyat, ezgulik va zulm, qudrat va zaiflik kabi masalalar aks etadi. Musiqaning bolalar ruhiyatiga ta'sir qilishining tugallanmas imkoniyatlari haqida qadimdan musiqashunoslar, mutafakkirlar va olimlar diqqatini o'ziga tortgan. Faylasuflar, psixologlar, pedagoglar va jamoat arboblari san'atlar ichida bolalar musiqa san'atining insonni shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir qiladigan xususiyatlari haqida aniqlashga uringanlar. Qadim zamonlardan musiqaning, ayniqsa, uning komponentlari - ritm va kuyning inson kayfiyatiga ta'siri, uning ichki dunyosini o'zgartirishi haqida fikrlar mavjud bo'lgan. Bolalar musiqa adabiyotida bolalar estetik tarbiyasining muhim omili sifatida shaxs shakllanishiga kuchli ta'sir etadi. Oilada, bog'chada, maktabda musiqa mashg'ulotlarini maqsadga muvofiq tarzda uyushtirish, yosh avlodning ichki dunyosini boyitish va san'atni to'g'ri tushunishdagi samarali yo'ldir. Musiqa bola his-tuyg'ularini, orzu-umidlarini, xohish-istaklarini o'ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishining his-tuyg'ulariga faol ta'sir etadi. Musiqa ham fan, ham san'atdir. Musiqa nazariy va amaliy jihatdan fizika va matematikaga asoslanadi, bu fanlar musiqani fanga aylantiradi. Lekin musiqa asariga shu fanning turg'un tushunchasi sifatida qarab bo'lmaydi. Chunki, bolalar musiqasi har doim rivojlanib turuvchi jonli san'atdir. Musiqa san'ati inson hayotining ilk yillaridanoq, uning hamrohiga aylanib, umumiy madaniy rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shadi. Musiqa bola umrining doimiy yo'ldoshi. Stendalning aytishiga ko'ra, musiqa - san'at turlari ichida bolaning yuragiga chuqur kirib, uning ichki kechinmalarini aks ettirishga qodirdir.

O'sib kelayotgan avlod uchun musiqiy tarbiyaning ahamiyatini nihoyatda buyuk ekanligini qadimiy mutafakkirlar alohida urg'u bilan ta'kidlashgan. Kelajak jamiyat a'zosining insoniy va ijobiy fazilatlari aynan bolalikdan boshlab shakllana boradi. Aynan shu davrda musiqa ijobiy sifatlarni shakllantiruvchi vosita hisoblangan. Musiqa qo'shiq va raqs tarkibida ham vujudga keladi va keyinchalik badiiy ijodning mustaqil turiga aylanadi, o'ta o'ziga xos badiiy ifoda tiliga ega bo'lib, maxsus ishlab chiqilgan va tanlab olingan tovushlar ana shu tilning manbaidir.

Demak, bolalarning musiqiy hamda shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishda musiqa san'atining o'rni beqiyosdir. Musiqa kishiga har tomonlama ta'sir ko'rsatar ekan, kuy va uning musiqiy ifodasi kishining hissiyotiga chuqur ta'sir qilib, unda har xil hislarni o'yg'otadi, turlicha kayfiyatlarni hosil qiladi. Qo'shiqning matni, g'oyaviy mazmuni faqat hissiyotga emas, balki bolalarning ongiga ham ta'sir qilib, ularni hayajonlantiradi va fikrlashga majbur etadi. Kishilarda asarda aks etgan ma'naviy muammolarga nisbatan muayyan munosabat uyg'otadi. Bunday ta'sir g'oyat murakkab va kuchlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G.Sharipova.G`.Najmekdinov Musiqa o`qitish metodikasi praktikumi
2. Ikromova M, Raximov X, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun halq qo'shiqlari va raqslar. T., O'qituvchi., 1992.
3. Apraksina.O.A.Maktablarda musiqiy tarbiya metodikasi
4. Qodirov R. Musiqa psixologiyasi. T. 2016.
5. Yu.Rajabiy "Musiqa merosimizga bir nazar" G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent-1978.